XALQ DEPUTATLARI BEKOBOD TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 25 - yanvar VI-47-5-10-135-K/22 Bekobod tuman hokimligi

2022 yil uchun Bekobod tumanining mahalliy byudjeti to`g`risida

O`zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, O`zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 99-moddasi, O`zbekiston Respublikasining 2021 yil 30 dekabrdagi “2022 yil uchun O`zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to`g`risida”gi 742-sonli Qonuniga hamda xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2021 yil 29 dekabrdagi 44-sonli qaroriga muvofiq xalq deputatlari Bekobod tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1.O`zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O`zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to`g`risida”gi Qonuni va xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2021 yil 29 dekabrdagi qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2.Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2021 yil 29 dekabrdagi qaroriga muvofiq, Bekobod tuman mahalliy byudjetining 2022 yil uchun daromadlari 170 254,1 mln.so`m va xarajatlari 170 254,1 mln.so`m prognoz qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3.2022 yil uchun tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi **1-ilovaga** muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4.2022 yil uchun tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlariga ajratiladigan mablag`larning cheklangan miqdorlari **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

5.2022 yil tuman mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar

me’yorlari **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

6.2022 yil uchun viloyat byudjetidan tuman mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 84 213,893 mln.so`m etib belgilanganligi tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini tuman va shahar mahalliy byudjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo`l qo`yilmasligi qonunda belgilab qo`yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7.2022 yil uchun tuman byudjeti zaxira jamg`armasi hajmi 1 606,171 mln.so`m miqdorida belgilansin.

Tuman budjetlarining 2022 yil uchun zaxira jamg`armalari tegishli byudjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

8.Qishloq xo`jaligiga mo`ljallanmagan yerlar bo`yicha mahalla fuqarolar yig`ini kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig`i stavkasiga 0,9 dan 1,2 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo`llagan holda yer solig`i stavkalari **4-ilovaga** hamda yuridik shaxslar bo`yicha mol-mulk soliqlari uchun qo`llaniladigan mutloq miqdorlari **5-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

9.2022 yil uchun tuman mahalliy byudjeti shaxsiy g`azna hisob varaqlarida turgan byudjet mablag`larining yo`l qo`yiladigan eng kam miqdori 1 260,378,0 mln.so`m qilib belgilansin.

10.Tuman hokimining birinchi o`rinbosari (B.Xakimov), Moliya bo`limi (Sh.Boykuziyev), Davlat soliq inspektsiyasi (J.Alimov) va boshqa mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to`lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjet prognoz ko`rsatkichlarni o`z vaqtida va samarali bajarish;.

byudjet mablag`laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to`lovlarning to`liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo`shimcha rezervlarni aniqlash

zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

11.Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (J.Alimov) O`zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to`liq va to`g`ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o`z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig`i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo`yicha doimiy tahlillar o`tkazgan holda, soliqlarni to`liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to`lovlari bo`yicha soliq qarzdorligiga yo`l qo`ymaslik choralarini ko`rish;

aylanmadan soliq turi bo`yicha soliq to`lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to`liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o`rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o`tkazish;

bunda, mazkur yo`nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ`ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ`ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar;

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig`ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin;

2022 yildan boshlab yuridik shaxslar mol-mulk solig`ini hisoblashda ko`chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to`lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to`liq hisoblanishini ta’minlasin.

12.Majburiy ijro byurosi Bekobod tuman bo`limi (O.Gulyamov) tuman davlat soliq inspeksiyasi (J.Alimov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to`lovlar bo`yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko`rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo`yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko`rish vazifasi yuklatilsin.

13.Mahalla va oilani qo`llab quvatlash bo`limi (Yo.Mo`minova), jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo`yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko`rsatsin.

14.Tuman hokimi o`rinbosari (I.Majitov):

bo`sh turgan davlat mulki ob'yektlarini aniqlash bo`yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko`ra tumanda mavjud bo`sh turgan davlat mulki ob'yektlari ro`yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro`yxatga asosan bo`sh turgan davlat mulki ob'yektlarini ijaraga berish yoki sotish bo`yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo`sh turgan davlat mulki ob'yektlarini ijaraga berish yoki sotish bo`yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo`ljallangan bo`sh turgan davlat mulki ob'yektlarini «e-ijro auksion» maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish vazifasi yuklatilsin.

15.Tuman mahalliy byudjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo`shimcha mablag`larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun "Fuqarolar tashabbusi jamg`armasi"ga yo`naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash maqsadida aholiga keng targ`ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas'ul etib belgilansin;

mahalliy byudjetning qo`shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari olib borilayotgan ob'yektlar ro`yxati, shuningdek qurilish-ta'mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to`g`risidagi ma'lumotlar har chorak yakunlariga ko`ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda hokimlik rasmiy veb-saytiga joylashtirib borilsin.

16. Kengashning mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo`yicha doimiy komissiyasi (Qurbonov A):

mahalliy byudjetning qo`shimcha manbalaridan foydalanish to`g`risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida byudjet qonunchiligiga to`liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo`shimcha manbalari hisobidan

ajratilgan mablag`larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o`rnatish va natijalari bo`yicha tavsiyalar berish va monitoring qilish;

mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo`naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag`larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

17. Tuman hokimining birinchi o`rinbosari (B.Xakimov), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tegishli tashkilot va korxona rahbarlari:

mahalliy byudjet daromad va xarajatlarining prognoz ko`rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko`rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan byudjet mablag`laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo`yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

18. Tuman hokimligi qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to`lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

19. Mazkur qaror “Bekobod ovozi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

20. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

21.Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo`yicha doimiy komissiyasi”(A.Qurbonov) va Bekobod tuman hokimining iqtisodiy taraqqiyot va kambag`allikni qisqartirish masalalari bo`yicha birinchi o`rinbosari B.Hakimov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman kengashi raisi **F.Xudoyrberdiev**

Халқ депутатлари Бекобод туман Кенгашининг
2022 йил 25 январдаги
VI-47-5-10-135-K/22-сон қарорига
1-илова

2022 ЙИЛ УЧУН БЕКОБОД ТУМАН МАҲАЛЛИЙ БЮДЖЕТ ДАРОМАДЛАРИНИНГ РЕЖА КЎРСАТКИЧЛАРИ

Даромад турлари		**Сумма минг сўм**
1	Юридик шахслардан олинадиган фойда солиғи	1 381 721
2	Корхоналар айланмасидан солиқ	3 855 207
3	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	13 840 811
4	Якка тартибдаги тадбиркорлар учун жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	1 138 404
5	Якуний истеъмолчиларга бензин, дизель ёқилғиси ва газ реализация қилишдаги акциз солиғи	8 988 521
6	Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	1 992 704
7	Жисмоний шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	5 051 869
8	Юридик шахслар ер солиғи	9 552 653
9	Жисмоний шахслардан олинадиган ер солиғи	8 568 356
10	Қурилиш материаллари бўйича ер қаъридан фойдаланганлик учун солиқ	995 325
11	Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ	4 550 083
12	Давлат мулки бўйича ижара тўловлари	244 731
ЖАМИ		**60 160 385**
	Мобиль алоқа хизмати ва алкоголь маҳсулотлари, шу жумладан пиво учун акциз солиғи тушумларидан тегишли равишда ўтказиб бериладиган даромад	**25 879 851**
13	Алкоголь маҳсулотлари, шу жумладан пиво	9 795 026

14	Мобиль алоқа хизмати	5 580 395
15	Тамаки маҳсулотлари акциз солиғи	10 504 430
ЖАМИ ДАРОМАД		**86 040 236**

Халқ депутатлари Бекобод туман Кенгашининг
2022 йил 25 январдаги
VI-47-5-10-135-К/22-сон қарорига
2-илова

2022 ЙИЛ УЧУН ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИ БЕКОБОД ТУМАН БЎЙИЧА МАҲАЛЛИЙ БЮДЖЕТ ХАРАЖАТЛАРИНИНГ РЕЖА КЎРСАТКИЧЛАРИ

Кўрсаткичлар		**Миқдори** (минг сўм)
	Харажатлар - жами	**170 254 129**
1.	**Ижтимоий соҳа ва аҳолини ижтимоий қўллаб-қувватлашга харажатлар - жами**	**133 841 024**
	шу жумладан:	
1.1	Маориф	14 917 882
	- мактабгача таълим	6 372 338
	- умумий таълим	8 545 544
	- кадрлар тайёрлаш	
1.2	Соғлиқни сақлаш	60 921 220
1.3	Маданият ва спорт, оммавий ахборот воситалари	4 656 239
	- маданият ва оммавий ахборот воситалари	1 144 698
	- маданий мерос объектларини реставрация ва тиклаш тадбирлари	
	- спорт	3 511 541
1.4	Болали оилаларга ва кам таъминланган оилаларга нафақалар ва компенсациялар	53 162 594
1.5	Чернобиль фалокатини бартараф этишда қатнашганларни ижтимоий ҳимоялаш	862
1.6	Ижтимоий кўникма марказлари	182 227
2.	**Иқтисодиётга харажатлар**	**12 891 222**
	шу жумладан:	
2.1	Фермерлар хўжаликлари бухгалтерия марказлари	556 132

2.2	Ўсимликлар карантини инспекциялари харажатлари	
2.2	Ободонлаштириш	8 350 412
2.3	Сув хўжалиги вазирлиги ташкилотлари	1 939 138
2.4	Ветеринария қўмитаси	1 088 060
2.5	Маҳаллий бюджетларда ҳоким ёрдамчиларининг тавсиялари асосида маҳалла инфратузилмасини яхшилаш учун	957 480
3	**Давлат бошқарув органларини сақлаш**	**9 294 351**
	шу жумладан:	
3.1	Давлат бошқарув идоралари	9 294 351
4	**Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларини сақлаш**	**4 590 506**
5	**Заҳира жамғармаси**	**1 606 171**
6	**Фуқаролар ташаббуси жамғармаси**	**8 030 855**
7.	**Бошқа харажатлар**	**-**
**	**Тартибга солувчи бюджетлараро трансфертлар**	**84 213 893**

Халқ депутатлари Бекобод туман Кенгашининг
2022 йил 25 январдаги
VI-47-5-10-135-K/22-сон қарорига
3-илова

Умумдавлат солиқларидан Бекобод тумани бюджетига 2022 йилги ажратмалар меъёрлари тўғрисида

МАЪЛУМОТ

Т/р	Туман номи	Жисмоний шаҳслардан олинадиган даромад солиғи	Юридик шаҳслардан олинадиган фойда солиғи	Юридик шаҳслардан олинадиган мол-мулк солиғи	Юридик шаҳслардан олинадиган ер солиғи	Якка тартибаги тадбиркорлар тўлайдиган жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	Жисмоний шаҳслардан олинадиган ер солиғи	Жисмоний шаҳслардан олинадиган мол-мулк солиғи	Акциз солиғи: якуний истеъмолчиларга бензин, дизел ёқилғис ва газни реализация қилишдан акциз солиғи	Давлат мулки бўйича ижара тўловлари	Айланмадан солиқ	Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ
1	Бекобод туман	42	40	100	100	100	100	100	100	100	50	100

Халқ депутатлари Бекобод туман Кенгашининг
2022 йил 25 январдаги
VI-47-5-10-135-K/22-сон қарорига
4-илова

Қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ерлар бўйича Бекобод туманида маҳалла фуқаролар йиғини кесимида 2022 йил ер солиқ ставкалари учун белгиланган коэффицент

Т/р	МФЙлар номи	Юридик шахслардан ундириладиган ер солиғи ставкалари, 1 га учун		Жисмоний шахслар бўйича, 1 кв.м учун	
		Коэффициент (0,7 дан 3,0 гача)	Ер солиғи ставкаси 2022 йил учун (минг сўмда)	Коэффициент (0,7 дан 3,0 гача)	Ер солиғи ставкаси 2022 йил учун (сўмда)
1	Найман МФЙ	0,90	26 578,8	0,90	243
2	Уяс МФЙ	0,90	26 578,8	0,90	243
3	Ачамайли МФЙ	0,90	26 578,8	0,90	243
4	Шова МФЙ	1,05	31 008,6	1,05	283,5
5	Қўқони МФЙ	1,00	29 532,0	1,00	270
6	Янги овул МФЙ	1,00	29 532,0	1,00	270
7	Қуштамғали МФЙ	1,00	29 532,0	1,00	270
8	Тақачи МФЙ	1,10	32 485,2	1,10	297
9	Истиқбол МФЙ	1,10	32 485,2	1,10	297
10	Хос МФЙ	1,10	32 485,2	1,10	297
11	Ёшлик МФЙ	1,10	32 485,2	1,10	297
12	Дўстлик МФЙ	1,10	32 485,2	1,10	297
13	Ўзбекистон МФЙ	1,10	32 485,2	1,10	297
14	Ўрикзор МФЙ	1,00	29 532,0	1,00	270
15	Илғор МФЙ	1,10	32 485,2	1,10	297

16	**Қўрғон МФЙ**	1,10	32 485,2	1,10	297
17	**Гулзор МФЙ**	1,00	29 532,0	1,00	270
18	**Маллабой МФЙ**	1,00	29 532,0	1,00	270
19	**Назарбой МФЙ**	1,00	29 532,0	1,00	270
20	**Исфара МФЙ**	1,00	29 532,0	1,00	270
21	**Теракзор МФЙ**	1,00	29 532,0	1,00	270
22	**Қушчи МФЙ**	0,90	26 578,8	0,90	243
23	**Хамза МФЙ**	0,90	26 578,8	0,90	243
24	**Оқ-тепа МФЙ**	0,90	26 578,8	0,90	243
25	**Ўзбекобод МФЙ**	1,10	32 485,2	1,10	297
26	**Бунёдкор МФЙ**	1,10	32 485,2	1,10	297
27	**Боғишамол МФЙ**	1,00	29 532,0	1,00	270
28	**Бобур Мирзо МФЙ**	1,10	32 485,2	1,10	297
29	**Далварзин МФЙ**	1,10	32 485,2	1,10	297
30	**Янгибозор МФЙ**	1,10	32 485,2	1,10	297
31	**Олтин водий МФЙ**	0,90	26 578,8	0,90	243
32	**Зиёли МФЙ**	0,90	26 578,8	0,90	243
33	**Хонобод МФЙ**	0,90	26 578,8	0,90	243
34	**Парчаюз МФЙ**	1,00	29 532,0	1,00	270
35	**Мусақиллик МФЙ**	1,00	29 532,0	1,00	270
36	**Пастки Кераит МФЙ**	1,00	29 532,0	1,00	270
37	**Бешюз МФЙ**	0,90	26 578,8	0,90	243
38	**Фарход МФЙ**	1,00	29 532,0	1,00	270
39	**Сарюз МФЙ**	0,90	26 578,8	0,90	243
40	**Турон МФЙ**	0,90	26 578,8	0,90	243
41	**Бўстон МФЙ**	1,20	35 438,4	1,20	324
42	**Гулистон МФЙ**	1,20	35 438,4	1,20	324

43	**Истиқлол МФЙ**	1,20	35 438,4	1,20	324
44	**Янги-Ҳаёт ҚФЙ**	0,90	26 578,8	0,90	243
45	**Қолғонсир МФЙ**	0,90	26 578,8	0,90	243
46	**Саврак МФЙ**	0,90	26 578,8	0,90	243
47	**Қора-қўйли МФЙ**	1,00	29 532,0	1,00	270
48	**Бирдамлик МФЙ**	0,90	26 578,8	0,90	243
49	**Пахтакор МФЙ**	0,90	26 578,8	0,90	243
50	**Ёшлик-2 МФЙ**	0,90	26 578,8	0,90	243
51	**Деҳқонобод МФЙ**	0,90	26 578,8	0,90	243

Халқ депутатлари Бекобод туман Кенгашининг
2022 йил 25 январдаги
VI-47-5-10-135-K/22-сон қарорига
5-илова

Юридик шахслар бўйича мол-мулк солиқлари учун қўлланиладиган мутлоқ миқдор

№	Туман номи	Коэффициент (мутлоқ миқдор)	Белгиланган қиймат (сўмда)
1	Бекобод тумани	1,00	1 000 000,0